



SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI TARIXIDAN

Nodira Xolmonova

Oriental universiteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası PhD

Abdukabirov Mirzoanvar

Tarix fakulteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada sharq xattotlik san'atining tarixiy shakllanish jarayoni, arab yozuvi asosidagi xat turlarining kelib chiqishi va badiiy xususiyatlari, shuningdek, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan xattotlik maktablarining o'rni ilmiy manbalar asosidagi tahlili qilinadi.

Kalit so'zlar. Sharq xattotligi, ma'qaliy, rayxoniy, muhaqqaq, taliq, suls, Movarounnahr xattotlik maktablari.

Sharq xattotlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Bu san'at turli xalqlarning madaniyati va san'ati bilan uyg'unlashib, turli maktab va uslublarni yaratgan. Sharq xattotligi ayniqsa, islom madaniyatida alohida o'rin tutadi, va boshqa diniy hamda ilmiy asarlarni bezash vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Mashhur xattotlar xatlarining chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab harflarining har biriga oro berishiga, husn kiritishga va ularni go'zallashtirishga harakat qilgan.

Arab yozuvining 36 shakli (xati)dan har biri alohida uslub va tabiiy yo'nalishi bilan bir-biridan farqlanadi. Bu esa xat turning har biriga betakrorlik va o'ziga xoslik bag'ishlaydi. [1; B-10]. Shuning uchun o'rta asrlardagi yozma manbalarga e'tibor qaratsak, turli xat turlarining guvohi bo'lamiz. Bu xat turlari o'ziga xosligi, ifodalanishi bilan ham bir-biridan ajralib turadi.

Dunyodagi barcha muqaddas kitoblar, qomusiy, tarixiy, ilmiy, adabiy, ma'rifiy, asar va to'plamlar mana shu xattot(kalligraf)larning sermashaqqat mehnatlari evaziga bizgacha yetib kelgan. Aynan shu tufayli nodir qo'lyozma manbalarimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Arab yozuvi dastlab ma'qaliy va kufiy xatlarida shakllandi. VII–IX asrlarda islom madaniyatining kengayishi bilan yozuv san'ati ham rivoj topdi. Abbosiylar davrida xattotlik ilmiy mezonlar asosida tizimlashtirildi [2; B-110]. Arab xatining "*ma'qaliy*" deyilishi, Ma'qaliy ibn Sinonga nisbat berilganini bildiradi. Ma'qaliy xati kufiy xatidan oldingi qadimiy yozuvlardan bo'lib u harflarning to'g'ri chiziqchiligi bilan kufiy xatidan ajralib turadi. Ikki dunyo saodati bo'lmish Qur'oni karim ham mana shu xatda bitilgan. Xazrati Usmon (r.a.) boshchiligida Qur'on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko'chirtirildi.



Shuningdek, umaviylar zamonida ya'ni VII asr oxiridan boshlab arab tangalari ham kufiy xatida zarb qilina boshlandi.

Qayd etish kerakki, islom olamida arab xatining quyidagi yetti turi keng qo'llaniladi [3; B-97]: *Muhaqqaq*. Bu xatning ko'proq qismi tekis tikka chiziqli bo'lib harflar uzun yoziladi. O'ramlarining uchi esa ingichka bo'lib tugaydi, qolgan bo'laklari dumaloq shaklda. Shuning uchun bu xatning ma'qaliy va kufiy xatlarga o'xshashligi boshqa xatlarga nisbatan ko'proq. Shu sababdan Ibn Muqla bu xatga muhaqqaq deb nom berdi, ya'ni, boshqa turdagi xatlardan birinchi deb bildi.

Rayxoniy xat uslubi. Kufiydan kelib chiqqan bu xatning yozilishi shakl jihatidan rayxonga o'xshash bo'lib aylanma shaklli harflar sulus xatiga qaraganda yotiqroq va cho'ziqroq yoziladi. Rayxoniy xatining ixtirochisi Ibn Bavvob sanaladi.

Suls. Bir narsaning uchidan bir hissasi yoki uchinchi hissasi, demakdir. Suls xati deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchi hissasi ishlatiladi yoki yozish jarayonida qalamning uchdan bir hissasi ko'proq ishga solinadi. Mazkur yozuv uslubida "alif", "dol", "lom" harflari gajakli bo'ladi. Boshlanishida tikka chiziqlarining uch qismi changaksimon boshlanib oxiri nafis burama bilan tugaydi. Ibn Bavvob birinchi bo'lib suls xati harflarining shaklini nuqta o'lehovlariga asoslagan va sulus xatining grafik asoslarini ixtiro etgan. Keyingi davrda xattotlardan Muhammad Amin Vohidul Ayn (bir ko'zlik) XVII asrda Buxoroda Mirzo Ulug'bek madrasasining qarshisida ichi va tashqarisi koshinlar bilan ishlangan Abdulazizxon madrasasining baland peshtoqiga bir ko'zining ojizligiga qaramay, badiiy suls xati bilan kitobasini yozadi [4; B-55].

Nasx. Bu xat xattotlar tomonidan keng qo'llanilgan. "Nasx" xatining lug'aviy ma'nosi – o'chirish, bekor qilish demakdir. Bu xat turi yuzaga chiqib shuhrat qozongandan so'ng boshqa xatlarning barchasi mansux qilingan ya'ni ishlatishdan qoldirilgan. Uning ixtirochisi mashhur san'atkor xattot Ibn Muqla hisoblanadi.

Tavqi. Xatning yarmi tekis, yarmi esa yumaloq chiziqdan tashkil topgan bu yozuv turi ham ma'qaliy va kufiy xatlarga o'xshaydi. "Tavqi" deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so'zlarni shu xatda yozishgan. Shu jihatdan bu nom bilan atalgan.

Riqo. Bu "ruq'a" so'zining ko'pligi bo'lib qog'oz parchalari yoki maktublar degan ma'noni anglatadi. Riqo xatida harflar bir-biriga qurama qilib yozilgan. Bu yozuv turi usmoniylar hukmronligi davrida katta shuhrat qozongan va keng tarqalgan. Ko'pincha alohida shaxslarga yuboriladigan nomalar shu xat bilan yozilgan. Shuni ham aytish kerakki, tavqi va riqo xatlarining ixtirochisi ma'lum emas.



Ta'liq xati. “Ta’liq” – osilib turuvchi, ilingan degan ma’noni anglatadi. Abul Oliy ixtiro etgan ta’liq xatining grafik asoslari kufiy xatidan kelib chiqqan hamda forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan.

Xatlarning har biri maxsus o‘rinlarda qo‘llanib kelingan. Masalan, kufiy xat turi qasida, she’r yozishda, rayxoniy va nasx qissa, xabarlar uchun, suls xat turi esa ilmiy asarlar yozishda, tavqi buyruq-farmonlarda, riqo maktublar uchun ishlatilgan.

Arab alifbosi asosida shakllangan va uning jozibadorligiga hissa qo‘shadigan mazkur xat turlarining rivojida qator markaziy Osiyodagi xattotlik maktablarining faoliyati ham ahamiyatga ega [5; B-10-11]. Bunday xattotlik maktabiga bir nechtasini kiritish mumkin:

Buxoro xattotlik maktabi. Bu maktab XVI-XVII asrlarda o‘z taraqqiyotining yangi bosqichlariga ko‘tariladi. Xuddi shu davrda Mir Ubaydiy Buxoriy tomonidan “Nasxi Buxoriy” xati ixtiro qilinadi.

Xorazm xattotlik maktabi. XVIII asrning boshlarida mustaqil maktab sifatida shakllanadi. XIX asrga kelganda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonasida bu maktab taraqqiy etadi va uning faoliyatida nasta’liq xati yetakchi o‘rin egallaydi.

Farg‘ona va Qo‘qon xattotlik maktablari. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Qo‘qon xonligida madaniy hayot, san‘at va adabiyot ravnaq topadi. Farg‘ona shaharlarida qo‘qonlik mashhur xattotlar Muhammad Sharif Dabir, Muhammad Alixon, Muhammad Yodgor Ho‘qandiy, Abdullatif Hisoriy kabilar mazkur maktabning taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdi. Qo‘qon xattotlik maktabida ham nasta’liq xati yetakchi o‘rinni egallagan.

Samarqand xattotlik maktabi. XVII asrlarda Muhammad Murod Samarqandiy, Mir Rajab Samarqandiylar bu maktabga asos soldi. Movarounnahr tevaragida nasta’liq xatining ixtirochilari 4 kishidir [6; B-99-100; B-12]. Birinchi xattotlarning otasi Mavlaviy Soqiy Muhammad, Sidiqjon Quyi Daraxtiy, Sidiqjon Ishtixoniy hamda Abduljabbor Urgutiy.

Sharq xattotlik san‘ati uzoq va boy tarixga ega. U o‘zining rivojlanishida turli xil bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir davrda o‘ziga xos xususiyatlarni kasb etgan. Bugungi kunda xattotlik san‘ati qayta tiklanish davrini boshdan kechirmoqda va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda yangi shakllar va ifoda usullarini topmoqda. Sharq xattotlik san‘ati – bu go‘zallik, ma’naviylik, madaniyat va individual ifodani o‘zida mujassam etgan noyob san‘at turi. Uning jozibasi asrlar osha ko‘plab insonlarni o‘ziga maftun etgani holda, kelajakda ham bu san‘at o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharq xattotlik va miniatura san'atidan namunalar. XII-XXI asarlar (musanniv bisotidan): [albom] / Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi. – Albom to'plovchisi, muqaddima va izohlar muallifi: A.R.Buxori va boshqalar. – Toshkent, "O'zbekiston", 2011. – 480 bet.
2. Safadi Y. Islamic Calligraphy. – Thames & Hudson, 1978. – 435 p.
3. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan.– Toshkent, "FAN" nashriyoti, 1971. – 196 b.
4. Karimov A. Sharq xattotlik san'ati tarixi. Toshkent, 2018. – 211 b.
5. Sharq xattotlik va miniatura san'atidan namunalar. XII-XXI asarlar (musanniv bisotidan): [albom] / Bahouddin Naqishband yodgorlik majmuasi markazi, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi. – Albom to'plovchisi, muqaddima va izohlar muallifi: A.R. Buxori va boshqalar. – Toshkent, "O'zbekiston", 2011. – 480 bet.
6. Sharq xattotlik va miniatura san'atidan namunalar...– 480 b. ; Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan.– Toshkent, "FAN" nashriyoti, 1971. – 196 b.



CERTIFICATE

Nodira Xolmonova

SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI TARIXIDAN

**BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE
FOR A SUSTAINABLE FUTURE**

Is awarded for active participation in
the conference.



Editor of International
«Gisconf» Scientific
Conferences



2026-02-07

DATE:





CERTIFICATE

Abdukabirov Mirzoanvar

SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI TARIXIDAN

**BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE
FOR A SUSTAINABLE FUTURE**

Is awarded for active participation in
the conference.



Editor of International
«Gisconf» Scientific
Conferences



2026-02-07

DATE:





DIPLOMA

OF APPRECIATION

Proudly presented to

Nodira Xolmonova

**FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION
OF THE PAPER ENTITLED**

SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI TARIXIDAN

In a **Bridging the GAP: Education and science for a sustainable future** published online with International multidisciplinary research conference, hosted online from Berlin, Germany



Chief editor

Global innovation online
scientific conferences

2026-02-07

Date



DIPLOMA

OF APPRECIATION

Proudly presented to

Abdukabirov Mirzoanvar

**FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION
OF THE PAPER ENTITLED**

SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI TARIXIDAN

In a **Bridging the GAP: Education and science for a sustainable future** published online with International multidisciplinary research conference, hosted online from Berlin, Germany



Chief editor

Global innovation online
scientific conferences

2026-02-07

Date